

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BEGIMOVA DILSHODA KOMILJONOVNA

**KLASTERLASHTIRISH ASOSIDA MINTAQALAR TABIIY-IQTISODIY
SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH**

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UDK: 332.1:330.524(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Begimova Dilshoda Komiljonovna

Klasterlashtirish asosida mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish..... 3

Бегимова Дилшода Комилжоновна

Эффективное использование природно-экономического потенциала регионов на основе кластеризации..... 26

Begimova Dilshoda Komilzhonovna

Efficient use of the natural and economic potential of the regions based on clustering..... 50

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BEGIMOVA DILSHODA KOMILJONOVNA

**KLASTERLASHTIRISH ASOSIDA MINTAQALAR TABIIY-IQTISODIY
SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH**

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Iqt538 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya O‘zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.nuu.uz)_ya “Ziyonet” axborot ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Sodiqov Avazbek Madaminovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Egamberdiyev Farmonqul Tursunqulovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Zaxidov G‘afurjon Erkinovich iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.01.11 raqamli Ilmiy kengashning 2023- yil 13-oktabr 14:00 soatdagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy, Tel.: (99871) 227-12-24, 246-02-24; faks: (99871) 246-90-80, e-mail: rector@nuu.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (144 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy, Tel.: (99871) 227-12-24, 246-02-24; faks: (99871) 246-90-80, e-mail: rector@nuu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 25-sentabr kuni tarqatildi.

(2023-yil 15-oktabrdagi 25-raqamli reyestr bayonnomasi)

H.P. Abulqosimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Q.Q. Mambetjanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.V. Vaxabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil qilish asosida hududlar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda klasterlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining ingratsiyasi hamda yuqori texnologiyalarni jalb qilish hisobiga iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning barqaror rivojlanishi ta'minlanmoqda. Hozirda klasterlar "...rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining 50 foizdan ortig'ini qamrab olgan bo'lib, AQSHda yalpi ichki mahsulotning 60 foizi, Yevropa Ittifoqida band aholining 40 foizi ular xissasiga to'g'ri keladi"¹. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va ularni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ishlab chiqarish zarurati tashkil etishning klaster usulidan samarali foydalanishni taqozo qilmoqda.

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili sifatida klaster siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. Jumladan, klasterlarning mintaqalarda iqtisodiy o'sish va tarmoqlar rivojlanishiga ta'sirini o'rganish, tarmoqlarning klasterlarga transformatsiyalashuvi jarayonining xususiyatlarini tadqiq etish, hududiy klasterlar faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, klasterlar vositasida barqaror, yashil va raqamlashtirilgan sanoat ekotizimlarini barpo etishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Klaster konsepsiyasining hali shakllanish bosqichida ekanligidan kelib chiqib, ular faoliyatida sinergetik samaradorlikni oshirish hamda hududlar iqtisodiyoti rivojlanishidagi muammolarni bartaraf etish yo'llari va usullarini tadqiq etishga yo'naltirilgan izlanishlarni kengaytirish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab "...tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, sust rivojlangan hududlarning ishlab chiqarish-eksport salohiyatini oshirish vositasi"² sifatida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida klasterlar shakllantirila boshlandi. Bunda "...mamlakatda yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, hududlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlash kabi maqsadlarga erishishda hududiy agrosanoat klasterlari muhim omil hisoblanadi"³. 2022-2026 yillarda paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish orqali O'zbekistonda "...tarmoq mahsuloti hajmini 2 baravar"⁴ga oshirish, jumladan, Buxoro viloyatida "...paxta tolasi va ip-kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga

¹ European Cluster Panorama 2021. Leveraging clusters for resilient, green and digital regional economies. S.Franco, A.Murciego, J.Pablo Salado, E.Sisti, J.Wilson. European Union, 2021. https://clustercollaboration.eu/sites/default/files/2021-12/European_Cluster_Panorama_Report_0.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyuldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/mobileact/3107036>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

yetkazish va eksport hajmini 4 baravar⁵ga oshirish rejalashtirilgan. Shundan kelib chiqib, mintaqalarda paxta-to‘qimachilik tarmog‘ini klasterlar vositasida jadal rivojlantirish, ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biriga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 fevraldagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 16 noyabrdagi PF-14-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 10 yanvardagi PF-2-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 14 dekabrda PQ-5285-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25 yanvardagi 53-son «Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 4 dekabrda 733-son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida», 2022-yil 27 aprelda 215-son “2022-2026 yillarda Buxoro viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 22 aprelda 234-son “2021-2023 yillarda Buxoro viloyatining Vobkent tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Klaster nazariyasining shakllanishida xorijlik olimlardan I. Tyunen, V. Laundxardt, A. Veber, A. Lyosh, E. Xeksher, B. Olin, F. List, U. Ayzardlarning xissasi juda katta⁶. A. Marshall va J. Bekattining sanoatni hududiy tashkil etish borasidagi qarashlari zamonaviy klaster nazariyasi shakllanishiga asos bo‘lgan⁷. AQSH va G‘arbiy Yevropa iqtisodchi olimlari M.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-aprelda 215-son “2022-2026 yillarda Buxoro viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/5988275>

⁶ Тюнен И. Изолированное государство. — М.: Экономическая жизнь, 1926.; Launhardt W. Die Bestimmung des zweckmässigsten Standortes einer gewerblichen Anlage// Zeitschrift des Vereines deutscher Ingenieure. v.26 (Mar), 1882 pp. 106—115.; Вебер А. О теории размещения промышленности. Том 1. Чистая теория размещения (1909).; August Lösch // Энциклопедия Брокгауз (нем.)/ Hrsg.: Bibliographisches Institut & F.A. Brockhaus, Wissen Media Verlag.; М. Блауг. Экономическая мысль в ретроспективе. — М.: Дело ЛТД, 1994. — С. 27. — ISBN 5-86461-151-4.; Блауг М. Айзард, Уолтер // 100 великих экономистов после Кейнса Great Economists since Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. — СПб.: Экономикс, 2009. — С. 18—20. — 384 с.

⁷ Гринева Н.А. Вклад Дж. Бекаттини в формирование современных теорий региональной конкурентоспособности / Н.А. Гринева ; БелГУ // Актуальные проблемы развития национальной и региональной экономики: материалы междунар. науч.-практ. конф., Белгород, 22 апр. 2010 г. / под науч. ред.

Porter, M. Enrayt, S. Rozenfeldlar klasterlar vositasida mintaqalar iqtisodiyoti tarmoqlarining raqobatbardoligini oshirish, X. Shmit, P. Svonn, M. Prevezer, M. Delgado, S. Stern, K. Izsak, K. Ketels, G.M. Kucherlar klaster siyosatining mintaqalar iqtisodiyoti o'sishiga ta'sirini o'rganish, M. Steyner, S. Xartmann, E. Bergman, E. Fezerlar esa klaster ishtirokchilari orasidagi aloqalar samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar⁸. Hududiy klasterlar nazariyasining rivojlanishiga MDH mamlakatlari olimlaridan I.S. Ferova, T.V. Kojinova, R.G. Shoroxov, Y.A. Fedorova, A.P. Petrov katta xissa qo'shganlar⁹.

O'zbekistonda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari T.M. Axmedov, A.M. Sodiqov, F.T. Egamberdiyev, Sh.X. Nazarov, B.B. Ruzmetov, B.B. Valiyev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan¹⁰. G.I. Zaxidov, Ya.S. Be, K.R. Xonkeldiyeva va N.X. Sadriddinovalar to'qimachilik sanoatini klaster usulida boshqarish mexanizmini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borganlar¹¹. M.A. Rahmatov, V.Z. Zaripov, D.M. Mirzaxalilova, R.S. Xoliqovalarning tadqiqotlari paxta-to'qimachilik tarmog'ini, O.A. Davronov

Е.Н.Камышанченко,С.Н.Растворцевой.-Белгород,2010.-С.243-247.<http://dspace.bsu.edu.ru/handle/123456789/8813>.; Маршалл А. Принципы политической экономии. В 3-х томах. Т. 1. – М.: Прогресс, 1983. – 416 с.

⁸ Портер М. Конкуренция: Пер. с англ. / Майкл Портер. – М. и др.: Вильямс, 2003. 605 с.; Enright M. J. The globalization of competition and the localization of competitive advantage: policies towards regional clustering//The globalization of multinational enterprise activity and economic development. – Palgrave Macmillan, London, 2000. – С. 303-331.; Bergman, E.M., & Feser, E.J. (1999). Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications. Reprint. Edited by Scott Loveridge and Randall Jackson. WVU Research Repository, 2020.; Delgado, Mercedes/Porter, Michael E./Stern, Scott, 2013: Defining Clusters of Related Industries, Working Paper 20375 of the National Bureau of Economic Research. Available at: www.nber.org/papers/w20375.; K. Izsak, Ch. Ketels, G.M.Köcker. Smart Guide to Cluster Policy. European Union, 2016. doi:10.2873/48105.

⁹ Ферова И.С., Кожина Т.В., Шорухов Р.Г. и др. Промышленные кластеры и их роль в развитии промышленной политики региона: монография /]. – М.:ИИФРА-М; Красноярск : Сиб. федер. ун-т, 2018. – 247 с.–(Научная мысль); Федорова Е.А., Коркмазова Б.К., Муратов М.А. Спилловер-эффекты в российской экономике:региональная специфика//Экономика региона.–2016.–Т.12.–№1.–С.139-149. https://www.researchgate.net/publication/311863314_Ot_teorii_klasterov_k_teorii_klasternogo_razvitiya_regionov_evolucia_i_problematika/citations.; Петров А.П. Теоретико методологические основы формирования социально ориентированного кластера в регионе. Автореферат диссертации...доктора экономических наук. Екатеринбург. 2014. 38 с.

¹⁰ Ахмедов Т.М. Управление территориальной организацией производительных сил и комплексным развитием регионов Узбекистана: иктисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. –Тошкент, 1992. – 26 б.; Sodiqov A.M. O'zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uni tartibga solish mexanizmlari: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2006. - 20 б.; Эгамбердиев Ф.Т. Совершенствование структуры производства на внутрирегиональном уровне // Молодой ученый. – 2016. – №. 21-1. – С. 61-63; Назаров Ш.Х. Эндогенные факторы конкурентоспособности региона и их эконометрическое тестирование. // Регион: Экономика и Социология, 2013. – С. 316-329.; Ruzmetov B., Ruzmetov Sh.B. Mintaqani kompleks rivojlantirishda raqobatbardoshlik afzalliklarini o'rni // Молодой ученый. — 2016. — № 12.4 (116.4). — С. 57-60. — URL: <https://moluch.ru/archive/116/32193/>; Valiyev B.B. Hududlarda iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishni oshirishda investisiya resurslarini faol jalb qilish yo'llari // Экономика i finansy (Uzbekistan). 2019. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ududlarda-i-tisodiyot-tarmo-larini-moliyalashtirishni-oshirishda-investitsiya-resurslarini-faol-zhalb-ilish-y-llari>.

¹¹ Zaxidov G.I. O'zbekistan yengil sanoatida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish samaradorligi: iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Т., 2017. 57 б.; Бе Я.С. Управление развитием текстильной промышленности на основе стратегии формирования кластеров (на материалах Республики Корея и Республики Узбекистан): Автореферат дисс. на соиск. учёной степени кан. экон. наук. – Т., 2008. 61 б.; Muminova E.A.,Xonkeldiyeva K.R. To'qimachilik sanoati klasterlari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish [Matn]: monografiya /E.A.Muminova, K.R.Xonkeldiyeva.-Farg'ona politexnika instituti. Farg'ona: ALFERGANUS, 2022.-166 б. ISBN 978-9943-7707-7-5; Садриддинова Н.Х. Анализ цепочки добавленной стоимости в текстильном секторе экономики Узбекистана // Иктисодиёт ва таълим / 2021 йил, 5-сон. 297-297 б. file:///C:/Users/user/Downloads/215.pdf.

va S.X. Abdellayevalarning tadqiqotlari to‘qimachilik korxonalarini klaster usulida rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan¹². Ammo, hududiy-tarmoq klasterlarining mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish asosida izchil iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashdagi ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot va dissertatsiya ishlari yetarli darajada bajarilmagan. Aynan shu holat mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash uchun asos bo‘ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston milliy universitetining F-1-101 «Globallashuv sharoitida mintaqalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligi o‘shishiga metodologik yondashuvlar» (2018-2020 yy.) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi hududiy ishlab chiqarish klasterlari tashkil qilish va rivojlantirish asosida mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishni klaster usulida hududiy tashkil etishning zamonaviy nazariyalarini o‘rganish;

hududiy klasterlar, xususan to‘qimachilik klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganish hamda ulardan O‘zbekiston tajribasida foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

mintaqalar iqtisodiyoti tarmoqlarining klasterlashtirish salohiyatini baholash metodikasini takomillashtirish hamda O‘zbekiston mintaqalari to‘qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmog‘ining klasterlashtirish salohiyatini baholash;

Buxoro viloyati paxta-to‘qimachilik klasterlarida qo‘shilgan qiymatning texnologik zanjirini shakllantirish yo‘li bilan hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish;

mintaqada paxta-to‘qimachilik tarmog‘ini klaster usulida rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

2023-2030 yillarda paxta-to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, eksport va yalpi hududiy mahsulot hajmini oshirish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqish.

Tadqiqot ob‘yekti sifatida Buxoro viloyati paxta-to‘qimachilik klasterlari olingan.

Tadqiqot predmetini hududiy paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

¹² Raxmatov M.A., Zaripov B.Z. Klaster – integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o‘shish. Risola. T.: “Zamin Nashr”, 2018.; Мирзахалилова Д.М. Повышение конкурентоспособности промышленности Узбекистана на основе кластеризации (на примере текстильной промышленности). Автореферат дисс. на соиск. Ученой степени канд. экон. наук. –Т., 2012. 56 б.; Xoliqova R.S. Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini klaster asosida rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2022. 59 b.; Davranov O.A. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2018. 63 b.; Abdellayeva S.X. To‘qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2021. 60 b.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida dialektika, tizimli tahlil, mantiqiylik, tahlil va sintez, statistik, iqtisodiy-matematik modellashtirish, prognozlashtirish, taqqoslash, grafik, hamda hisob-konstruktiv (integral indekslarni hisoblash) usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqaning yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligi past bo'lgan hududlarida paxta xom ashyosini qayta ishlash jarayonida qo'shilgan qiymatni oshirishga tuprog'i sho'rlangan maydonlarda faoliyat yurituvchi klasterlarga davlat tomonidan subsidiyalar ajratish orqali erishish taklifi asoslangan;

Buxoro shahri va Romitan tumanini to'qimachilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish yo'li bilan paxta-to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

hudud tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini Vobkent tumanida 2 ta paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etish orqali oshirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish orqali hosildorlik va xom ashyoni chuqur qayta ishlash darajasini oshirish orqali 2030 yilgacha Buxoro viloyatida paxta-to'qimachilik tarmog'ini rivojlantirishning 3 xil ssenariy bo'yicha prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

hudud iqtisodiyoti tarmoqlarining klasterlashtirish salohiyatini baholash metodikasi takomillashtirilgan;

O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyotining to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmog'i klasterlashtirish salohiyatini baholangan va natijalarga ko'ra mintaqalar guruhlangan;

xorij tajribasini o'rganish asosida hududiy paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi;

Buxoro viloyati paxta-to'qimachilik klasterlarida qo'shilgan qiymatning to'la zanjirini shakllantirish yo'li bilan hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlangan;

Buxoro viloyati ayrim hududlarini paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish yo'li bilan paxta-to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish bo'yicha takliflar berilgan;

Vobkent tumanida 2 ta paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

hududning xom ashyo salohiyatidan kelib chiqib, 2023-2030 yillar uchun paxta-to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, eksport va yalpi hududiy mahsulot hajmini oshirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

hududiy paxta-to'qimachilik klasteri modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorijiy va mahalliy olimlarning mazkur muammo bo'yicha ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilinganligi, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning ilmiy asoslanganligi, dissertatsiyada foydalanilgan ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va uning hududiy bo'limlari, O'zbekiston paxta-to'qimachilik

klasterlari uyushmasi, Buxoro viloyati hokimligi hamda hamda bshqa rasmiy manbalardan linganligi, shuningdek, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi to'g'risida vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan ishlab chiqarishni klaster usulida hududiy tashkil etishning nazariy asoslari va yo'nalishlarini ishlab chiqishda, hududiy paxta-to'qimachilik klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududiy paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, hududlar iqtisodiyoti tarmoqlarining klasterlashtirish salohiyatini baholash, klasterlashtirish salohiyatini hisobga olgan holda hududiy rivojlanish dasturlarining samaradorligini oshirish hamda oliy ta'lim muassasalarida "O'zbekiston iqtisodiyoti", "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Innovatsion iqtisodiyot" kabi fanlardan o'quv materiallari tayyorlash va o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Klaster siyosati asosida mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

mintaqaning tabiiy salohiyatidan foydalanish samaradorligi past bo'lgan hududlarida paxta xom ashyosini qayta ishlash jarayonida qo'shilgan qiymatni oshirishga tuprog'i sho'rlangan maydonlarda faoliyat yurituvchi klasterlarga davlat tomonidan subsidiyalar ajratish orqali erishish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 27 apreldagi 215-son "2022-2026 yillarda Buxoro viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 2-ilovasining 41-bandini tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasining 2023 yil 13 iyundagi 02/22-426-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida hududda hosildorlik, tarmoq mahsuloti miqdori va qo'shilgan qiymatni oshirish imkoniyati kengayadi;

Buxoro shahri va Romitan tumanini to'qimachilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish yo'li bilan paxta-to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish bo'yicha berilgan taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 27 apreldagi 215-son "2022-2026 yillarda Buxoro viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 3-ilovasining 1 va 9-bandlarini tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasining 2023 yil 13 iyundagi 02/22-426-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida mazkur hududlarda to'qimachilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilib, hududlar iqtisodiyoti paxta-to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtiriladi;

Buxoro viloyati tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini Vobkent tumanida 2 ta paxta-to‘qimachilik klasteri tashkil etish orqali oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 apreldagi 234-son “2021-2023 yillarda Buxoro viloyatining Vobkent tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 2-ilovasining 2-bo‘limi 58 va 59-badlarini tayyorlashda foydalanilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023 yil 13 iyundagi 02/22-426-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida Vobkent tumani markazida 2 ta yangi paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etiladi;

zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish orqali hosildorlik va xom ashyoni chuqur qayta ishlash darajasini oshirish orqali 2030 yilgacha Buxoro viloyatida paxta-to‘qimachilik tarmog‘ini rivojlantirishning 3 xil ssenariy bo‘yicha ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 27 apreldagi 215-son “2022-2026 yillarda Buxoro viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori 1-ilovasining 1-bandi, 2-ilovasining 4 va 42-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023 yil 13 iyundagi 02/22-426-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida viloyatda tarmoqni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va maqsadli parametrlarini ishlab chiqishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bir qancha ilmiy anjumanlarda, xususan 4 ta halqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishining tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 135 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob‘yekti va predmetiga tavsif berilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, ilmiy tadqiqotdan olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Hududiy klasterlar tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari**» deb nomlagan birinchi bobida ishlab chiqarishni klaster usulida hududiy

tashkil etishning nazariy asoslari, hududiy klasterlar tashkil etish bo'yicha xorij tajribasi yoritilgan, mintaqa to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmog'i klasterlashtirish salohiyatini baholash metodikasi takomillashtirilgan.

Ushbu bo'limda ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning yangi shakllari hamda klaster konsepsiyasining shakllanishiga I. Tyunen, V. Laundxardt, A. Veber, A. Lyosh, A. Smit, D. Rikardo, E. Xeksher, B. Olin, F. List, U. Ayzard kabi olimlar nazariyalarining ahamiyati ochib berilgan¹³. Klaster konsepsiyasiga A. Marshallning "sanoat rayonlari" va J. Bekattinining "sanoat okruglari" nazariyalari (nazariy yadro) sasos bo'lganligi ochib berilgan¹⁴.

Klaster nazariyasi asoschisi M. Porter mamlakat yoki hudud iqtisodiyoti raqobatbardoshligi ishlab chiqarish samaradorligiga bog'liqligi va klasterlarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish salohiyati yuqori ekanligini ta'kidlaydi¹⁵. Klasterlar mahalliy resurslardan samarali foydalanish asosida mintaqalarda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, o'sish nuqtalarini shakllantiradi. Bu nuqtalar hududning iqtisodiy rivojlanish lokomativiga aylanadi. Klasterlar hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish asosida iqtisodiyot tarmoqlarida samarali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratadi, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali iqtisodiy agentlar daromadlarini oshiradi. Ular hudud ixtisoslashgan tarmoqlar (yadro korxonalar) bazasida shakllantirilib, iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlariga mansub korxonalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzulma rivojlanishi, aholi farovonligi ortishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyada klasterlarga olimlar tomonidan berilgan ta'riflar o'rganib chiqilgan. Muallifning fikricha, klasterning to'liq va yagona to'g'ri ta'rifini ishlab chiqish mumkin emas. Ta'riflar klasterlarning tarmoq va hududiy qamrovi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ta'rifga ko'ra, hududiy klaster – bu qo'shilgan qiymat yaratilishining asosiy texnologik zanjiriga kiruvchi, ma'lum hududda joylashgan, hamkorlikdagi faoliyatdan sinergetik samara oluvchi va hududning rivojlanishini ta'minlovchi o'zaro aloqador korxonalar guruhidir.

Mintaqa paxta-to'qimachilik tarmog'ining tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligi tashkiliy va texnologik innovatsiyalarni joriy etish hisobiga oshiriladi. Klasterlarda sanoatning optimal tuzilmasi shakllanib, ishlab chiqarish-fan-ta'lim aloqalarining to'g'ri tashkil etilishi hamda innovatsiyalar diffuziyasidan vujudga keluvchi sinergetik samara hisobidan rivojlanishga erishiladi.

¹³ Блауг М. Айзард У. //100 великих экономистов после Кейнса =Great Economists since Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. — СПб.: Экономикс, 2009.—С. 18-20.-384 с.; Бондаренко Н.Е. Инновационные кластеры: теоретические основы и формы организации//Вестник российского экономического университета имени Г.В.Плеханова, 2015. №5(83).—С. 29-41.

¹⁴ Маршалл А. Принципы политической экономии. В 3-х томах. Т. 1. – М.:Прогресс, 1983. – 416 с.; Гринева Н.А. Вклад Дж. Бекаттини в формирование современных теорий региональной конкурентоспособности / БелГУ // Актуальные проблемы развития национальной и региональной экономики : материалы междунар. науч.-практ. конф., Белгород, 22 апр. 2010 г. / под науч. ред. Е.Н. Камышанченко, С.Н. Растворцевой. - Белгород, 2010. - С. 243-247. <http://dspace.bsu.edu.ru/handle/123456789/8813>; Becattini G. (1992) The Marshallian industrial district as a socio-economic notion, in Pyke, F./Becattini, G. /Sengenberger, W. // Industrial districts and inter-firm co-operation in Italy, International Institute for Labour Studies, Geneva. P. 37–51.

¹⁵ Портер М. Конкуренция: Пер. с англ. / Майкл Портер. – М. и др.: Вильямс, 2003. 605 с.

Muallif tomonidan klasterlarni rivojlantirishning xorij tajribasini o'rganish asosida O'zbekistonda yaratilgan paxta-to'qimachilik klasterlari modelining boshqa paxta yetishtiruvchi mamlakatlarda analogi mavjud emasligi aniqlandi. Jahon amaliyotida aynan paxta yetishtiruvchi, uni qayta ishlovchi, mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi, ta'minotchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining bir integratsion guruhga birlashishi kuzatilmaydi.

Mintaqalar iqtisodiyoti tarmoqlarining klasterlashtirish salohiyatini baholashning xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan usullari asosida mintaqa to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmog'ining klasterlashtirish salohiyatini baholash metodikasi ishlab chiqildi. Quyidagi 1-jadvalda klasterlashtirish salohiyatini baholash ko'rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi keltirilgan.

1-jadval

Mintaqa to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmog'i klasterlashtirish salohiyatini baholash ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkich	Ifo dasi	Hisoblash usuli	Izoh
1	Paxta hosildorligi ko'effitsiyenti	I_F	$F_R:F_C$	F_R -mintaqada o'rtacha hosildorlik; F_C -mamlakatda o'rtacha hosildorlik.
2	Tarmoqning ishlab chiqarish hajmi bo'yicha lokalizatsiya ko'effitsiyenti	I_{LP}	$\frac{V_b}{GRP}; \frac{V_B}{GDP}$	V_b -hududda tarmoq mahsuloti hajmi; V_B -mamlakatda tarmoq mahsuloti hajmi; GRP-yalpi hududiy mahsulot; GDP-yalpi ichki mahsulot.
3	Tarmoqning bandlar soni bo'yicha lokalizatsiya ko'effitsiyenti	I_{LEM}	$\frac{L_b}{L_R}; \frac{L_B}{L_C}$	L_b -mintaqada tarmoqda bandlar soni; L_R -mintaqada umumiy bandlar soni; L_B -mamlakatda tarmoqda bandlar soni; L_C -mamlakatda umumiy bandlar soni.
4	Tarmoqning asosiy fondlar hajmi bo'yicha lokalizatsiya ko'effitsiyenti	I_{LF}	$\frac{F_b}{F_R}; \frac{F_B}{F_C}$	F_b -mintaqa tarmoq korxonalar asosiy fondlari hajmi; F_R -mintaqa barcha korxonalar asosiy fondlari hajmi; F_B -mamlakatda tarmoq korxonalar asosiy fondlari hajmi; F_C -mamlakatda barcha korxonalar asosiy fondlari hajmi.
5	Tarmoqning eksport hajmi bo'yicha lokalizatsiya ko'effitsiyenti	I_{LEX}	$\frac{EX_b}{EX_R}; \frac{EX_B}{EX_C}$	EX_b -mintaqada tarmoq eksporti hajmi; EX_R -mintaqa umumiy eksporti hajmi; EX_B -mamlakatda tarmoq eksporti hajmi; EX_C -mamlakat umumiy eksporti hajmi.
6	Tarmoqning ixtisoslashuv ko'effitsiyenti	I_S	$\frac{V_b}{V_B}; \frac{GRP}{GDP}$	V_b -hududda tarmoq mahsuloti hajmi; V_B -mamlakatda tarmoq mahsuloti hajmi; GRP-yalpi hududiy mahsulot; GDP-yalpi ichki mahsulot.
7	Aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko'effitsiyenti	I_{RSR}	$\frac{V_b}{V_B}; \frac{L_b}{L_C}$	V_b -hududda tarmoq mahsuloti hajmi; V_B -mamlakatda tarmoq mahsuloti hajmi; L_b -mintaqada tarmoqda bandlar soni; L_C -mamlakatda tarmoqda bandlar soni.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar (1-jadval) asosida mintaqa to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmog'ining klasterlashtirish salohiyati integral ko'effitsiyenti (I_{SR}) hisoblanadi:

$$I_{SR} = \frac{I_F + I_{LP} + I_{LEM} + I_{LF} + I_{LEX} + I_S + I_{RSR}}{7} \quad (1)$$

Agar:

$I_{CP} < 1$ bo'lsa, tarmoqda klaster tashkil etish maqsadga muvofiq emas;

$I_{CP} \geq 1$ bo'lsa, tarmoqda klaster tashkil etish maqsadga muvofiq;

$0.8 < I_{SR} < 1$ bo'lsa, sifat ko'rsatkichlarini ham o'rganish va baholash orqali tarmoqda integratsion jarayonlarni amalga oshirish imkoni mavjud.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston hududlarida klasterlar shakllantirish salohiyati va rivojlanish tendensiyalari”** nomli ikkinchi bobida O‘zbekiston mintaqalari to‘qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmog‘i klasterlashtirish salohiyati baholangan, mintaqalarda paxta-to‘qimachilik klasterlarining rivojlanish tendensiyalari va Buxoro viloyati paxta-to‘qimachilik klasterlarini shakllantirish asosida tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan foydalanish darajasi tahlil qilingan.

To‘qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmog‘ining klasterlashtirish salohiyatini muallif tomonidan takomillashtirilgan metodika asosida baholash natijasida mintaqalar 4 guruhga ajratildi. Natijalar tadqiqot ob‘yektini hisoblangan Buxoro viloyatining tarmoq klasterlarini shakllantirish salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatdi (2-jadval).

2-jadval

Mintaqalarning to‘qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmog‘i klasterlashtirish salohiyatiga ko‘ra guruhlari¹⁶

1-guruh	Klasterlashtirish salohiyati o‘ta yuqori bo‘lgan mintaqalar	($I_{SR} > 2$)	Farg‘ona, Namangan, Jizzax va Andijon viloyatlari
2-guruh	Klasterlashtirish salohiyati yuqori bo‘lgan mintaqalar	$1 < I_{SR} < 2$	Buxoro, Xorazm, Sirdaryo, Samarqand, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari
3-guruh	Klasterlashtirish salohiyati o‘rtacha bo‘lgan mintaqalar	$0.8 < I_{SR} < 1$	Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahri
4-guruh	Klasterlashtirish salohiyati past bo‘lgan mintaqalar	$I_{SR} < 0.8$	Qoraqalpog‘iston Respublikasi


Buxoro viloyati respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Jumladan, 2021-yilda viloyat yalpi hududiy mahsuloti yalpi ichki mahsulotning 5.3 foizini tashkil etib, uning 16.9 foizi sanoatda, 45 foizi qishloq xo‘jaligida yaratilgan. Agrosanoat klasterlarini rivojlantirish orqali qishloq xo‘jaligi va sanoat integratsiyasini ta‘minlash hududning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish imkonini beradi. 2021-yilda viloyatga klasterlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 13.2 foizi, klasterlar asosiy kapitalga investisiyalarining 16.6 foizi, klasterlar eksportining 28 foizi, bandlarning 14.6 foizi va klasterlar tomonidan tashkil etilgan yangi ish o‘rinlarining 11.1 foizi to‘g‘ri kelgan¹⁷.

Paxta-to‘qimachilik tarmog‘ini klasterlashtirish natijasida 2017-2021 yillarda Buxoro viloyatida paxta xom ashyosini qayta ishlash darajasi ortib bordi (1-rasm). Ko‘rsatkich paxta tolasini qayta ishlashda 23.5 foizdan 100 foizga, ip-kalavani qayta

¹⁶ Muallif ishlanmasi

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari

ishlashda 24 foizdan 35 foizga va ip gazlamani qayta ishlashda 31.1 foizdan 58 foizga ko‘tarilgan.



1-rasm. Buxoro viloyatida paxta-to‘qimachilik mahsulotlarini qayta ishlash darajasi (foizda)¹⁸

Buxoro viloyati paxta-to‘qimachilik klasterlarining hudud tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligi qo‘shilgan qiymat zanjiri rivojlanishi asosida tahlil qilindi. Bunda klasterlar qo‘shilgan qiymat zanjiri rivojlanishiga ko‘ra 3 guruhga ajratildi: xom ashyoni ip-kalavaga (I), gazlama va trikotaj-matoga (II) va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlariga (III) qadar qayta ishlovchi klasterlar. Paxta-to‘qimachilik klasterlarining har bir bosqichda yaratilgan mahsulotlarni sotish yoki qayta ishlash ko‘rsatkichlari guruhlar bo‘yicha tahlil etilib (3-jadval), qayta ishlash darajasining pastligi quvvatlarning eskirganligi, aylanma mablag‘lar taqchilligi yoki bozorga kirishning murakkabligi kabi muammolar bilan bog‘liqligi aniqlandi.

3-jadval

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining 2021-yilda qayta ishlash ko‘rsatkichlari (foizda)¹⁹

Guruhlar	Klasterlar	Xom ashyoni qayta ishlash	Paxta tolasi		Ip kalava		Mato	
			Sotish	Qayta ishlash	Sotish	Qayta ishlash	Sotish	Qayta ishlash
I	"Buxoro Agroklastar" MCHJ	100	61	39	100	0		
	"Bahor Chance textile" MCHJ	100	56	44	100	0		
II	"WBM Romitex" MCHJ	100	50	50	22	78	100	0
	"Qorakul Kumush kalava" MCHJ	100	0	100	35	65	100	0
	"Real Teks Korako'l" MCHJ	100	0	100	10	90	100	0
III	"Ark Eko Tekstil" MCHJ	100	0	100	20	80	75	25
	"Parvoz humo ravnaq trans" MCHJ	100	0	100	0	100	80	20
	"Buxoro zarhal teks" MCHJ	100	10	90	30	70	85	15
	"Merganteks" MCHJ	100	0	100	80	20	35	65
	"BCT Agroklastar" MCHJ	100	82	18	28	72	90	10

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining resurs birligiga nisbatan iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili qo‘shilgan qiymat zanjiri rivojlanib borishi bilan resurslardan foydalanish samaradorligi ortib borishini ko‘rsatdi (4-jadval). Har 100 gektar paxta ekin maydoniga to‘g‘ri keluvchi band aholi soni 3-guruh klasterlarida eng yuqori bo‘lgan. Bu tendensiya eksport ko‘rsatkichlarida ham kuzatilgan.


¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari

¹⁹ Buxoro viloyati hokimligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining 2021-yilda 100 ga ekin maydoniga nisbatan bandlik, investitsiya va eksport ko‘rsatkichlari²⁰

Guruh	Paxta-to‘qimachilik klasterlari	Bandlar soni, nafar		Investitsiya, ming AQSH dol.		Eksport, ming AQSH dol.
		Qishloq xo‘jaligi	Qayta ishlash	Qishloq xo‘jaligi	Qayta ishlash	
I	«Buxoro Agroklastar» MCHJ	7.4	1	158	107	0
	"Bahor Chance textile" MCHJ	10.1	4.7	65	55	104,7
II	"WBM Romitex" MCHJ	1.3	6.7	40	370	4.5
	"Qorakul Kumush kalava" MCHJ	2.8	14.3	54	25	276,7
	"Real Teks Korako‘l" MCHJ	2	4.7	60	560	86,9
III	"Ark Eko Tekstil" MCHJ	10	32	86	39	109,5
	"Parvoz humo ravnaq trans" MCHJ	2.7	16.3	100	800	194,6
	"Buxoro zarhal teks" MCHJ	15.8	24.8	65	91	149,2
	"Merganteks" MCHJ	29.8	16.7	20	200	152,2
	"BCT Agroklastar" MCHJ	53	24.8	50	30	194,6
Viloyat bo‘yicha o‘rtacha		11	3.9	100	224	58.8

Hududiy paxta-to‘qimachilik klasterlarida qo‘shilgan qiymat zanjirining rivojlanib borishi nafaqat ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini, balki budjet daromadlarini ham oshiradi. Buni “BST Agroklastar” MCHJ misolida ko‘rish mumkin (2-rasm). 2017-2021 yillarda klasterning daromadlari 5.2 marta, soliqlar va budjetga to‘lovlar hajmi 27 marta oshgan.



2-rasm. "BST Agroklastar" MCHJning 1 gektar yer maydoni hisobidan daromadlari va to‘langan soliqlari bo‘yicha ma’lumot (mln. so‘m)²¹

“Buxoro viloyatida klasterlarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari” nomli uchinchi bobda viloyatda paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish orqali tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish imkoniyati asoslangan, 2030-yilgacha paxta-to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, eksport va yalpi hududiy mahsulot hajmini oshirish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan, hududda ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Muallif tomonidan 2021-yilda yetishtirilgan 344 ming tonna paxta xom ashyosini klasterlarda to‘liq qayta ishlash orqali yaratilishi mumkin bo‘lgan tayyor mahsulotlar miqdori hisoblab chiqilgan (5-jadval).

²⁰ Buxoro viloyati hokimligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

²¹ «BST Agroklastar» MCHJ tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari *2017-yil ma’lumotlari fermer xo‘jaliklari faoliyatiga tegishli

Buxoro viloyatida paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash natijasida yaratiladigan mahsulot miqdori²²

Paxta xom ashyosi - 344,0 ming t.	Paxta tolasi (34 %) – 17 ming t.	Ip kalava (85 %) – 99.5 ming t.	Mato (99 %) – 98.5 ming t.	Tayyor mahsulot (95 %) – 93.5 ming t.	
	Chigit (54 %) – 185.8 ming t.	Qayta ishlash (90 %) – 167.2 ming t.	Paxtachilik xo‘jaliklari		
			Paxta yog‘i (24 %) – 40.1 ming t.	Iste‘mol bozori / oziq-ovqat sanoati	
			Kunjara yoki shrot (27 %) – 45.1 ming t.	Chorvachilik kompleksi	
			Sheluxa (17 %) – 28.4 ming t.		
			Xo‘jalik sovuni va boshqa yuvish vositalari (10 %) – 16.7 ming t.	Iste‘mol bozori	
	Lint (4%) – 13.8 ming t.	Sellyuloza (65-85 %) va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish			
	Ulyuk (1%) – 3.4 ming t.	Tibbiy paxta, noto‘qima mahsulotlar ishlab chiqarish			
Momiq (7%) – 24.1 ming t.	Ko‘rpa-to‘shak, qog‘oz, kimyoviy tola, lenolium, syellofan....ishlab chiqarish				
G‘o‘za poya	Kimyo sanoati (bioetanol, biogumus...)				
	Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati				

Tarmoq daromadi xom ashyoni birlamchi qayta ishlashda 44 foizga, ip-kalava ishlab chiqarishda 11.5 foizga, ip gazlama ishlab chiqarishda 31 foizga, tayyor mahsulot ishlab chiqarishda 3.6 barobarga o‘shishi aniqlandi (6-jadval). Tayyor mahsulot paxta tolasiga nisbatan 5.2 marta daromadliroq. 2021-yilda viloyatda to‘qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmog‘i mahsuloti sanoat mahsulotining 20,7 foizini, yalpi hududiy mahsulotning 4 foizini tashkil etgan²³. Xom ashyoni to‘liq qayta ishlash mahsulot hajmini 3 barobarga oshiradi. Bu yalpi hududiy mahsulotni 8 foizga, sanoat mahsulotini 40 foizga oshirish imkonini beradi.

Buxoro viloyatida paxta xom ashyosini to‘liq qayta ishlash natijasida olinadigan daromad²⁴


Qayta ishlash bosqichlari	Mahsulot	O‘lchov birl.	Miqdori	Narxi (mln. so‘m)	Qiymati (mlrd. so‘m)	Jami (mlrd.so‘m)
1-bosqich	Paxta xom ashyosi	Ming tn	344	7100	2442	2442
2-bosqich	Paxta tolasi	Ming tn	117	23000	2691	3510
	Chigit	Ming tn	185.8	3500	650	
	Lint	Ming tn	13.8	8800	121	
	Ulyuk	Ming tn	3.4	3500	12	
	Momiq	Ming tn	24.1	1500	36	
3-bosqich	Ip-kalava	Ming tn	99.5	30150	3000	3000
4-bosqich	Ip gazlama(trikotaj mato)	Ming tn	98.5	40000	3940	3940
5-bosqich	Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari	Ming tn. Mln.dona	93.5 560	25000	14000	14000
Chigitni qayta ishlash	Paxta yog‘i	Ming tn	40.1	20000	802	1303
	Kunjara	Ming tn	45.1	4000	180	
	Sheluxa	Ming tn	28.4	2500	71	
	Xo‘jalik sovuni	Ming tn	16.7	15000	250	

²² Muallif ishlanmasi

²³ Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari

²⁴ Muallif ishlanmasi

2026-yilda viloyatda paxta xom ashyosi ishlab chiqarish 407 ming tonnage yetkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, yaratilgan xom ashyoni to'liq qayta ishlash uchun klasterlarning quvvatlari paxta tozalashda 407 ming tonna, ip-kalava ishlab chiqarishda 120 ming tonna, mato ishlab chiqarish, bo'yash va gul bosishda 550-600 mln. p/m va tayyor mahsulot ishlab chiqarishda 650-700 mln donaga yetkazilishi talab etiladi. Mavjud va 2026-yilga qadar yaratilishi rejalashtirilgan ishlab chiqarish quvvatlarining bu hajmdagi xom ashyoni to'liq qayta ishlash uchun yetarli emasligi yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqishni talab etadi (3-rasm).



3-rasm. 2021-2026 yillarda Buxoro viloyati paxta-to'qimachilik klasterlarining paxta xom ashyosini qayta ishlash bo'yicha quvvatlarining o'zgarishi²⁵

Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatining tarmoq mahsuloti, eksporti va yalpi hududiy mahsulot hajmiga ta'sirini aniqlash va baholash maqsadida 2023-2030 yillarga mo'ljallangan pessimistik, inersion va optimistik ssenariylar asosidagi prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Inersion ssenariy asosidagi prognoz tarmoq rivojlanishi tendensiyalariga, pessimistik prognoz hosildorlik, paxta ekin maydonlari hajmi o'zgarishi tendensiyalari va xom ashyoni qayta ishlash darajasining chuqurlashib borishiga (2026-yilda 35 foiz va 2030-yilda 50 foiz), optimistik prognoz hosildorlik o'zgarishining maqsadli parametrlari (2026-yilda 41.7 s/ga va 2030-yilda 47.1 s/ga) va qayqa ishlash darajasining chuqurlashib borishiga (2026-yilda 50 foiz va 2030-yilda 80 foiz) asoslanib ishlab chiqildi. Mahsulot miqdori (x) o'zgarishining tarmoq eksportiga (y) ta'siri korrelyatsion va regression tahlil asosida aniqlanib, regressiya tenglamasi (2) tuzildi.

$$Y = 3364.258 + 20.18 * X \quad (2)$$


Tarmoq mahsuloti hajmi va YaHM hajmi orasidagi bog'liqlik korrelyatsion-regression tahlil asosida aniqlanib, regressiya tenglamasi (3) tuzildi.

$$Y = 8518.03 + 6.34 * X \quad (3)$$

